

Ushbu shartnoma Jizzax viloyati Ixoslashtirilgan tashkiloti, keyingi o'rinlarda "Foydalanuvchi" nomidan rahbari \_\_\_\_\_ bir tomondan va O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi «Elektromagnit moslashuv markazi» davlat unitar korxonasi ("EMMM" DUK) Jizzax viloyati «Elektromagnit moslashuv xizmati» (Jizzax viloyati "EMMX"), Nizom asosida faoliyat yurituvchi bo'shlig'i Usmanov D.Yu. tomonidan quyidagilarga kelishgan holda tuzildi:

### 1. Shartnoma mazmuni

1.1. Radioelektron vositalardan (REV) foydalanishga muayyan radiochastotalar yoki radiochastota tasmalarini taqdim etish.

Jizzax viloyati EMMX tomonidan Foydalanuvchiga elektromagnit moslashuvchanlikni hisoblash va nazorat qilish, REV va radiochastotalarni ro'yxatdan o'tkazish xizmatlarini ko'rsatish.

1.2. Chet el aloqa ma'muriyatlari bilan radiochastota taqdimotlarini muvofiqlashtirish tayyorgarlik bo'yicha xizmatlar, shuningdek REV va radiochastota taqdimotlarini Xalqaro elektraloqa ittifoqida (XEI) ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

1.3. Jizzax viloyati EMMX tomonidan Foydalanuvchiga ajratilgan radiochastota resursining texnik tayyorligini ta'minlash va undan foydalanishni nazorat qilish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar, shuningdek, foydalanuvchining radioelektron vositalariga xalaqit beradigan radioshovqinlarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.

### 2. Tomonlarning majburiyatlari

#### Jizzax viloyati EMMX majburiyatlari:

2.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, REVni harid qilish va o'rnatish, loyihalashtirish va qurish, horijdan olib kirish va foydalanish uchun ruxsatnomalarni rasmiylashtiradi. Loyihalashtirish va qurish, shuningdek foydalanish uchun berilgan ruxsatnomaning amal qilish muddati, Foydalanuvchiga telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritishi uchun berilgan Litsenziyaning amal qilish muddatidan oshmasligi zarur.

2.2. Foydalanuvchining REVlarini ro'yxatdan o'tkazish va shu bilan bog'liq barcha kerakli ishlarni bajarish bilan shug'ullanadi.

2.3. Elektromagnit moslashuvchanlik ekspertizasini o'tkazadi, zarur hollarda, radioachastota taqdimotlarini xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi.

2.4. Qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, foydalanuvchining yozma so'roviga binoan, foydalanuvchining barcha turdagi radioelektron vositalarini va radioaloqa tizimlarini o'rnatilgan tartibda Xalqaro elektraloqa ittifoqida ro'yxatdan o'tkazadi.

2.5. Xorijiy davlat aloqa ma'muriyatlari bilan radiochastota taqdimotlarini muvofiqlashtirishda, shuningdek radiochastotalarni tayinlash va radioelektron vositalar va radioaloqa tizimlarini Xalqaro elektraloqa ittifoqida ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq munozarali masalalar yuzaga kelganda, Foydalanuvchining qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladi.

2.6. Foydalanuvchining REVlariga bo'ladigan radiohalaqitlar ta'sirini belgilangan muddatda bartaraf etishni ta'minlaydi.

2.7. Foydalanuvchining REVlarining ishlashi ustidan texnik radionazoratni amalga oshiradi.

#### Foydalanuvchi majburiyatlari:

2.8. REVni sotib olish (berish) va (yoki) o'rnatish (qurish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish), horijdan olib kirish va REVdan foydalanishda belgilangan tartibga rioya qiladi.

2.9. REVdan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnomalarda nazarda tutilgan, REVga taqdim etilgan radioma'lumotlarga asosan, amaldagi radionurlanish va boshqa talablarga muvofiq ishlashini ta'minlash.

2.10. Foydalanuvchiga tegishli bo'lgan REVlar va radioaloqa tizimlarining radioaloqa qurilmalari va ayrim operatorlarning tizimlariga, shu jumladan qo'shni davlatlar aloqa